

UDK 911.3+913.1

**MAHALLIY SHAHARSOZLIK ANANALIRINING SHAKLLANISHIDA HIDROLOGIC
OMILNING ORNI**

Djo'raboyeva Xilola Shuhratovna
FarDU geografiya kafedrası doktoranti

Annotatsiya: *Maqolada shaharsozlikda tabiiy omillardan biri hisoblangan gidrologik omilning shaharlar yaratilishdagi o'рни va ahamiyati haqida fikr bildiriladi. Bu sohadagi geografik qonuniyatlarni Farg'ona vodiysi shaharlari shakllanishidagi qo'llanilishi ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Aholi maskanlari, aholi punktlarining hududiy tuzilishi, daryo sivilizatsiyalari, gidrologik omil, konussimon yoyilmalar, shahar infratuzilmasi*

KIRISH

2022 yil 29 yanvarda «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi» va «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi» qabul qilindi. «Taraqqiyot strategiyasi» 2022-2026 yillarda mamlakatni kompleks rivojlantirishga qaratilgan yetti yo'nalishdan iborat bo'lib, 100ta maqsad va ularga birlashtirilgan 398ta vazifani qamrab oladi. Strategiyada 2022-2026 yillarga mo'ljallangan hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha dasturlar asosida har yili barcha tuman va shaharlarning muammo va imkoniyatlarini chuqur o'rgangan holda, hududlar kesimida taraqqiyot dasturlari ishlab chiqilishi belgilab qo'yildi. Uning 33, 34, 35, 80 hamda 90-maqsadlarida O'zbekiston Respublikasida mavjud 14ta hudud bo'yicha tuman va shaharlar kesimida ishlab chiqilgan besh yillik hududiy dasturlarni amalga oshirish, aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimini tubdan takomillashtirish, shaharlarda oqova suv tizimlarini yangilash, shaharlardagi aholining turmush tarzi qulayligini baholovchi «Shaharlar qulayligi» indeksini joriy etish, shaharlarni raqamlashtirish, qurilish va loyihalashtirish ishlari sifatini oshirish va «Aqlli shahar» konsepsiyasiga muvofiq rivojlantirish, to'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish, shaharlarda transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, hududlarda harbiy shaharchalar barpo etish, shaharlarda ekologik ahvolni yaxshilash kabi masalalar yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar belgilab berildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma'lumotlarga ko'ra, shaharlar ibtidoiy jamoa davridan sinfiy jamiyatga o'tishda, hunarmandchilik va savdo-sotiqning dehqonchilikdan ajralib chiqish davrida paydo bo'lgan. Dastlabki shaharlar miloddan avvalgi 5-3 ming yilliklarda vujudga kelgan. Shaharlarning vujudga kelishi o'z-o'zidan, tasodifiy bo'lmay, o'ziga xos tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy

geografik omillar ta'sirida shakllanadi. Bu omillar ichida gidrologik omil muhim rol o'ynaydi. Jahondagi yuksak madaniyat o'choqlari qadimgi Nil vodiysida, Dajla va Furotning quyi oqimida, Hind-Gang havzasida, Yanszi va Xuanxe daryolari, Amudaryo va Sirdaryo bo'ylarida paydo bo'lgan. Dunyoning eng qadimgi sivilizatsiyalari — Misr, Shumer, Xarappa va boshqalarning «Daryo sivilizatsiyalari» sifatida e'tirof etilishi ham, bejiz emas. Rus olimi L.I.Mechnikov o'zining «Sivilizatsiya va buyuk tarixiy daryolar» nomli mashhur kitobida insoniyat tarixini uch turdagi sivilizatsiyaning almashinuvi natijasi deb ta'kidlaydi: 1) daryolar sivilizatsiyasi (Nil, Gang, Ind, Yanszi, Xuanxe, Dajla, Furot kabi daryo havzalarida shaharlarning shakllanishi bilan bog'liq); 2) dengiz (avvalambor O'rta Yer dengizi) sivilizatsiyasi; 3) okeanlar (global) sivilizatsiyasi. Uning yozishicha, «har bir buyuk daryoning suvlari oxir-oqibat dengizga yetib borganidek, har bir daryo sivilizatsiyasi yo'q bo'lib ketishi yo biron-bir kengroq madaniy oqimga qo'shilishi va yoki yanada kengroq dengiz sivilizatsiyasiga aylanishi mumkin».

Aholi maskanlarining hududiy joylashishida yer yuzasining kishilar tomonidan o'zlashtirilishi juda uzoq vaqt davom etadigan tarixiy jarayon hisoblanib, u hududning o'zlashtirilishi bilan bevosita bog'liqdir. Amudaryo va Sirdaryo vodiylarida, qadimgi Xorazmda bundan 2000 yil avval obikor dehqonchilik vujudga kelgan: dalalar kanal, ariq, suv quvurlari, koriz, chig'ir va boshqalar yordamida sug'orilgan. Mintaqada qadimgi shaharlarning vujudga kelishi ham o'sha davrlarga borib taqaladi. Mustaqillik yillarida Samarqand shahrining yoshi 2750 yil, Qarshi va Shahrisabzning kelib chiqishi 2700 yilga teng ekanligi aniqlandi. Buxoro, Xiva va Termiz shaharlarining 2500 yilligi, Toshkentning 2200 yilligi, Marg'ilonning 2000 yillik yubileylari nishonlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Boshqa qurg'oqchil hududlarda kuzatilgani kabi Farg'ona vodiysida ham hududning dehqonchilikda o'zlashtirilishi va sug'orish tizimining rivojlanishi asosiy aholi maskanlari joylashishiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Yu.Ahmadaliyevning ta'kidlashicha, Farg'ona vodiysidagi aholi maskanlari yuzaga kelishida balandlik pog'onalariga asoslangan etnoekologik mintaqalarning ta'sirini kuzatish mumkin. O'zlashtirish dastlab, vodiyning yuqori, uchinchi qisman to'rtinchi, etnoekologik mintaqalarida chorvachilik, bog'dorchilik, hunarmandchilik hamda lalmikor dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi tomonidan boshlangan. Eng qadimgi Xitoy yozma manbalarida Farg'onada 70ta «shahar» mavjud bo'lib, ularda 60 ming oila yoki 300 ming aholi yashaganligi qayd etiladi (Бартольд, 1965, с.529). Bu shaharlarning aksariyat qismi ham Farg'ona vodiysining yuqoridagi to'rtinchi, uchinchi etnoekologik mintaqasida joylashganligini ko'rish mumkin. Yu.A.Zadneprovskiy qadimgi Farg'onaning shaharlari uchun 5 xil arxeologik mezonni ajratadi: 1. Manzilgohlar yirik o'lchamga ega bo'lgan; 2. Mudofaa tizimi rivojlangan; 3. Ark mavjud bo'lgan; 4. Markaz atrofida qishloq xo'jaligi vohalari shakllangan; 5. Manzilgohlar hunarmandchilik faoliyati va oldi-sotdi (ayirboshlash) markazi hisoblangan.

Ma'lumki, vodiydagi barcha daryolar hududning adir mintaqasidan o'tganidan so'ng konussimon yoyilmalarni hosil qiladi. Bunga avvalo yoyilmalarning tipik namunasi sifatida

So'x konussimon yoyilmasini keltirish mumkin. Shuningdek, Isfara, Shohimardonsoy, Isfayramsoy, Aravonsoy, Oqbo'yra, Moylisoy, Norin kabi daryolarning adirlar xalqasidan chiqish joylaridagi konussimon yoyilmalarida ham yuqoridagi qonuniyat asosida joylashgan aholi maskanlari kuzatiladi. Bu aholi maskanlarining joylashishidagi muhim jihati ularning orasidagi masofalarni va asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan sug'orishga yaroqli er maydonlarining etarli bo'lishini ta'minlanganligidir. Konussimon yoyilmalarda bir tekis joylashgan qishloqlarda savdo-madaniy aloqalar shakllanishi natijasida har bir yoyilmaning "markaziy maskani» shakllangan. Bunday markazlar vazifasini Isfara, Qo'qon, Oltiariq, Marg'ilon, Asaka, Andijon, Uchqo'rg'on kabi shaharlar bajargan.

Iqtisodiy geografiya fanida xo'jalik va aholi punktlari hududiy tuzilishi turlariga ko'ra quyidagi 5ta ko'rinishda vujudga keladi: radial-halqasimon, radial-yoysimon, panjarasimon, lentasimon yoki qirg'oqbo'yi va havzali. Radial-halqasimon tuzilish O'rta Osiyoning qadimgi shaharlariga xos bo'lib, unda atrofdan keladigan barcha yo'llar markazda joylashgan shahar bozoriga tutashadi. Bunda ko'pincha o'rtada bozor maydoni yoki shahar hokimiyati bo'lgan. Radial-halqasimon shaharlarda ko'chalardagi uylarni raqamlash shahar markazidan uning chekkasiga tomon amalga oshiriladi. Radial-yoysimon ko'rinish asosan yirik shaharlarning markaziy qismlarida boshqa tizimlar bilan birgalikda uchraydi. Bunday holda, tekislik va o'tkazuvchanlik koeffitsienti shaharning umumiy rejalashtirish tizimini tashkil etgan oddiy geometrik tizimlarning xususiyatlariga qarab belgilanadi. Panjarasimon ko'rinish turi hududning nisbatan bir xil rivojlanishini aks ettiradi, ya'ni shahar hududlarini markazga bog'langan o'qlar bilan o'zaro bog'langan sektorlarga taqsimlanadi.

XIX asrning oxirida Farg'ona vodiysining qadimiy shaharlari Turkiston shaharlariga xos bo'lgan radial-halqasimon tuzilishga ega edi. Masalan, Qo'qon va Marg'ilon shaharlarining o'rtasida bozor maydoni "o'ram" bo'lib, shahardagi barcha ko'chalar shu markazga tutash bo'lgan. Qo'qonda yangi shahar eski shaharning janubi-g'arbiy hududida shakllantirilgan edi. 1876 yilda Xudoyorxon saroyi hududida yirik to'g'ri to'rtburchak shaklga ega rus qal'asi bunyod etiladi. 1890 yilda shahar arxitektori M.Mauer taklifiga ko'ra shahar markazidan kamroq qurilishlarga ega Aravan darvozasiga qaratib Rozenbaxovskiy (hozirgi Istiqlol) ko'chasi davom ettiriladi. Shunday qilib shaharning yevropa qismi markazdan endi g'arbga qarab rivojlana boshlaydi. Temir yo'lining Qo'qondan o'tkazilishi natijasida Rozenbaxovskiy ko'chasiga perpendikulyar yana bir keng ko'cha Skobelovskiy (hozirgi Turon) prospekti o'tkaziladi. Bu ko'cha to'g'ri temir yo'l vokzaliga borib tutashadi. Shu tarzda "T-simon" shakldagi yangi shahar rivojlanadi. 1876 yilda vodiyning markazi Qo'qondan Marg'ilonga ko'chiriladi. Tarixiy shaharning janubiy devoriga yaqin hududda rus qal'asi bunyod etiladi. Lekin 1877 yilda ushbu hududning iqlimi va suvini mutaxassislar tomonidan o'rganilib, nobop deb topgach, shahar qurilishi 8km janubroqdagi Yangi Marg'ilon shahriga ko'chiriladi. Shu tariqa Eski Marg'ilon o'zining tarixiy va an'anaviy ko'rinishini saqlab qoladi.

XIX asrning oxiri – XX asr boshi O'zbekiston hududlaridagi shahar madaniyatining rivojlanishi asosan rus ma'murlari, harbiylari va aholisi yashaydigan "yangi" qismlarda

zamonaviy infratuzilmalar yaratish bilan cheklanilib, mahalliy aholi yashaydigan “eski” qismlar esa XVI-XIX asr darajasida qoldi. Yangi shaharlarda to‘g‘ri va keng ko‘chalar o‘tkaziladi. Ular xavfsizlik nuqtai nazaridan yagona yadro tarafdin tarqalgan nursimon tarzda rejalangan edi. Boshqa etnoslar tomonidan o‘zga landshaftlarda yaratilgan aholi maskanlari rejasi, odatda, ko‘proq mudofaa maqsadlariga bo‘ysundirilgan bo‘ladi. Misol tariqasida Farg‘ona shahrini keltirish mumkin. Shahar loyihasi 1877 yil 8 martda gubernatorlik shtabida muhokama qilingan, reja vaqtli matbuotda e‘lon qilingan, unda mahalliy aholi vakillari ham qatnashgan. Shaharga 1877 yil 18 iyunda asos solingan, shu kunda shahar qurish loyihasi tasdiqlangan. Shahar qurish g‘oyasi – M.D.Skobelev tomonidan taklif qilingan. Shaharni asoschisi, uning birinchi quruvchisi, gubernator A.K.Abramov bo‘lgan. Shahar plani bo‘yicha qal‘a va uni oldidagi maydondan tarqaluvchi radianal-konsentrik shakldagi ko‘chalardan iborat bo‘lgan. Shaharning asosiy qismi Marg‘ilonsoyning chap sohilida bo‘lib, soy qisman mudofaa vazifasini ham bajargan, o‘ng sohilga dehqon bozori, kasalxona, harbiy mahkama joylashtirilgan.

ХУЛОСА

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, xalqimizning an‘anaviy tabiatdan foydalanish madaniyatini bir qismi sifatida o‘ziga xos shaharsozlik madaniyati ham ilmiy jihatdan tadqiq etishga muhtoj yo‘nalishlardan biri sanaladi. Shaharlarni yaratishda boshqa omillar bilan bir qatorda gidrologik omilning e‘tiborga olinishi arid hududlarda bir vaqtning o‘zida aholini suv resursi bilan ta‘minlash, o‘ziga xos mikroiklim hosil qilish imkonini bergan. Gidrologik ob‘ektlar esa zarur holatlarda mudofaa funksiyalarini ham bajargan. Bunday omillar e‘tiborga olinmagan yoki inkor qilingan taqdirda dunyodagi yirik shaharlar ham er yuzidan yo‘q bo‘lib ketib, ularning o‘rnida shahar harobalarigina qolgan. Bunday shaharlarga Qadimgi Davon (Farg‘ona)ning poytaxti Ershi, Mo‘g‘il imperiyasining poytaxti Qoraqurim yoki dunyoning etti mo‘jizasidan biri sanalgan Bobil shaharlarini misol qilib keltirish mumkin. Bugungi shaharlarning keng rivojlanishi jarayonida asrlar sinoviga bardosh bergan shaharsozlik madaniyatidan foydalanish bu hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik barqarorlikni saqlashning muhim shartlaridan biridir. Shuning uchun ham mazkur omillarni o‘rganish, amalyotga tadbiq etish kun tartibidagi masalalardan biri bo‘limg‘i lozim.

ADABIYOTLAR:

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida/ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni. 2022 yil 28 yanvar. <http://lex.uz/pages/getpage>
2. Ахмадалиев Ю. Этноэкология (географик жиҳатлари). – Фарғона: “Classic”, 2021. 286 б.
3. Маматмусаев Т.Ш. Ўзбекистон тарихий шаҳарларининг шаклланиши ва ривожланиши// Архитектура бўйича фан доктори (Doctor of Science) диссертацияси автореферати. Тошкент: 2019.
4. Масальский В. Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том. XIX. Туркестанский край. СПб.: книгоиздательства А.Ф. Девринень, 1913.
5. Мечниковъ Л.И. Цивилизация и великия историческия реки. Географическая теория развития современных обществъ. (перевод с французского М.Д.Градецкаго). С.Петербургъ, 1898.- 176с.
6. МУСТАЕВ, Р. Д., УБАЙДУЛЛАЕВ, С. С., & Носирхонзода, А. Н. РОЛЬ СЕМЬИ, ОБЩИНЫ И ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ДУХА У МОЛОДЕЖИ. АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 71.
7. МУСТАЕВ, Р., ХАСАНОВ, Н., УБАЙДУЛЛАЕВ, С., & АЛИНАЗАРОВ, Н. В ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОМ ДУХЕ. МОЛОДОЙ УЧЕНЫЙ Учредители: ООО" Издательство Молодой ученый",(2), 458-459.
8. Мустаев, Р. Д., Хасанов, Н. Х., Убайдуллаев, С. С., & Алиназаров, Н. Н. (2023). ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ВОЕННЫХ КОМИТЕТОВ ВООРУЖЕННЫХ СИЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. Мировая наука, (1 (70)), 115-119.
9. Мустаев, Р. Д. (2023). ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВЗГЛЯДОВ НА ПАТРИОТИЗМ ВО ВЗГЛЯДАХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ЭПОХИ ТЕМУРИДОВ. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 252-262.
10. Damirovich, M. R., Nurmuhammad, X., Saydaliyevich, U. S., & Nosirxonzoada, A. N. (2022). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH MASALALARI. PEDAGOG, 1(4), 1411-1414.
11. Мустаев Р.Д. ИЗУЧЕНИЕ РЕЛЬЕФА МЕСТНОСТИ ПО КАРТЕ. ИJODKOR O'QITUVCHI. 2022 Nov 26;2(24):100-21.
12. Мустаев, Р. Д., & Юсупов, Ш. Б. (2022). ТОПОГРАФИК ХАРИТА ҲАҚИДА ТУШУНЧА. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 900-904.
13. Damirovich, M. R., & Saydaliyevich, U. S. (2022). POSITIONING NAVIGATION FROM SATELLITES TARGETING WITH TOOLS. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 978-983.
14. Damirovich, M. R., & Saydaliyevich, U. S. (2022). JOY TURLARI VA ULARNING TAKTIK XUSUSIYATLARI. Scientific Impulse, 1(3), 1027-1032.

14. Мустаев, Р. Д. (2022). ИЗМЕРЕНИЕ УГЛОВ И РАССТОЯНИЙ НА МЕСТНОСТИ БЕЗ КАРТЫ. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(10), 79-83.

15. Alimov, S. S., & Yusupova, O. M. (2022). LINGUOCULTURAL FEATURES OF BORROWINGS FROM ENGLISH TO UZBEK LANGUAGE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 1-4.

16. Mamadjanova, M. U. (2022). O 'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOQ 'ISHTIRMA TADQIQI. ANTONAMAZIYA EPITETLAR. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(5), 110-115.